

INGLIZ VA O'ZBEK TILI TARJIMASIDA NOVERBAL ALOQA VOSITALARINING AKSLANTIRILISHI

Sultonmurodova Nilufar Baxtiyorovna
O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti Qiyosiy tilshunoslik,
lingvistik tarjimashunoslik yo'nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola noverbal aloqa vositalari hamda ularning tarjima jarayonida qo'llanilishi haqida ma'lumot beradi. Qolaversa, ingliz va o'zbek tilida ishlatiladigan noverbal aloqa vositalari o'rganiladi va chog'ishtirma metod (ikkita qardosh bo'lmagan tillar orasida qiyoslash) orqali tahlil qiladi. Bunda har ikkala tildagi badiiy asarlardagi nolisoniy bo'lgan aloqa-aralashuv vositalaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: aloqa-aralashuv, verbal aloqa vositalari, noverbal aloqa vositalari, imo-ishoralar, kinesika, proksemika, takesika, pantomimika, mimika, tarjima.

Aloqa – bu odamlar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lish jarayoni ularning turli xil faoliyati davomida, har bir insonning jamiyatdagi faoliyati (ish, o'rganish, o'yin, ijodkorlik va boshqalar) o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun, har biri shaxsning jamiyatdagi o'rnini, ishining muvaffaqiyati va obro'si bevosita uning muloqot qilish qobiliyati bilan bog'liq. Bir qarashda oson ko'rinadigan shaxslararo aloqa aslida inson hayoti davomida o'rganiladigan juda murakkab jarayon bo'lib, sharhlash muloqotning psixologik jihatdan murakkab tabiati, deb yozadi B.F.Parigin.

Bilamizki, paralingvistika – noverbal kommunikatsiya hisoblanadi. Tilda (nutqda) ularning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular nutqni obrazlantirishga xizmat qiladi. Bular kinesika (hissiyotlarni tashqi tana azolari orqali ifodalanishi), imo-ishoralar (tana qismlarining alohida harakatlari), proksemika (muloqotda insonlar o'rtasidagi yaqinlik masofasi), takesika (muloqot vaqtida teginishlar, siypalash, itarib yuborish), pantomimika (yurish harakatlari, qomatni tutish, egilish harakatlari), mimika (yuz mushaklarining turli xil harakatlari) kabilar.

Imo-ishoralar xalq va elatlarning urf-odatlaridan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qiladi. Masalan, italyanlar kimdandir jahli chiqqanda kaftlarini tishlari



orasiga qo'yishsa, o'zbeklarda kaftlarini gorizontaliga bo'yinlariga qo'yish odati bor. Yoki italyanlarning yana bir imo-ishorasi, ya'ni ko'rsatkich barmog'ini chakkalariga qo'yib kulishlari ularning taom mazali chiqqanligini bildirsa, bu belgi bizning xalqimizda uyat degan ma'noni bildiradi. Bunga o'xshash holatlar judayam ko'p. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Italiya xalqi yer yuzida eng ko'p imo-ishoralar va yuz hamda qo'l harakatlarini ishlatuvchi xalq hisoblanadi, ularning biron-bir gaplari va suhbatlarini imo-ishoralarsiz tasavvur qilish judayam qiyin. Qolaversa, agarda kimda kim italyan tilida to'liq va bemalol so'zlashishni xohlasa xech bo'lmaganda ularning qo'l harakatlarini o'rganib olishlariga to'g'ri keladi.

Ko'rib turganingizdek imo-ishoralar so'zlashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega, ular bir tarafdin o'sha xalqning ko'zgusi, uning urf-odatlarini ko'rsatib bersa, boshqa tarafdin ular xalqning qon-qoniga singib ketgan va o'z-o'zidan muloqot jarayonida yuzaga keladi.

Tilshunoslikda bu kabi vositalar paralingvistik vositalar deb ataladi. Ma'lumotlarga ko'ra, paralingvistik vositalar harakat va holatni anglatadi hamda ular gavda harakatlari, imo-ishoralar va tovush toni orqali ifodalanadi. Lekin ular badiiy adabiyotdagina so'z bilan ifodalanishiga to'g'ri keladi, shuning uchun ham ular qahramon tilidan emas, balki muallif tilidan berib o'tiladi. Masalan, bunga bir nechta misollar keltirishimiz mumkin:

– Nega xabar bermadilaring? – ta'na qildi u. – Keyin muncha shoshildilaring?
– Iskandar akaning gapini ikkita qilmang dedik, - dedi Hafiza va qaynonasiga ma'nodor qarab qo'ydi (O'. Umarbekov).

Ingliz tili ham paralingvistik vositalarga juda boy til hisoblanadi. Paralingvistik vositalar gapda so'zlashuvchilarning fizik holatini ko'proq ishlatilishi, so'zlarni esa kamroq ishlatishni talab qiladi. Ingliz tilida paralingvistik vositalar asosan besh turga bo'linadi. Bular imo-ishoralar, yuz ifodalari, ko'z ifodasi, tana ifodasi va muloqot masofasidir. Ularning har birini o'z ishlatish o'zni va vazifasi bor.

Qo'lning gorizontal yo'nalishda qimirlatish imo-ishoralar ichida eng ko'p ishlatiluvchi hisoblanadi. Bu noverbal vosita asosan salomlashish va hayrlashish ma'nolarida ishlatiladi. Masalan, quyidagi parchada qo'lni silkitish “hayrlashish” ma'nosida ishlatilgan:

– They kissed their mother quietly, clung about her tenderly, and tried to wave their hands cheerfully when she drove away.¹ – Ular onasini sekingina o’pib qo’yishdi, uni mehr bilan quchoqlab olishdi va u mashina haydab ketayotganda qo’llarini quvonch bilan silkitishga harakat qilishdi.

Boshning ham muloqotda o’z o’rni bor. Bosh bilan bog’liq bo’lgan paralingvistik harakatlar nafaqat o’zbek tilida, balki g’arb tillarida ham juda ko’p uchraydi. Har bir bosh harakatining ishlatilish o’rni va ma’nosi bor. Masalan, “boshni silkitish” yoki “chayqatish” noverbal vositalari “afsuslanish” ma’nosida ishlatilgan:

– He shook his head. ‘I wish I could call her amiable. It gives me pain to speak ill of a Darcy.’² – U boshini chayqadi. “Men uni mehribon deb atashni xohlardim. Darsi haqida yomon gapirish menga azob beradi.”

Ko’rsatkich barmoqni ko’tarib, uni labga tekizib vertikal holatda ushlab turish esa “tovush chiqarmaslik”, “sukut saqlash”ni ko’rsatish uchun foydalanib kelinadi:

– ‘Hush!’ said Bernard suddenly, and lifted an index finger; they listened. ‘I believe there’s somebody at the door,’ he whispered.³ “Jim!” – to’satdan dedi Bernard va ko’rsatkich barmog’ini labiga ko’tardi; ular quloq solishdi. “Ishonamanki kimdur eshik oldida turibdi” – dedi u pichirlab.

Cho’lponning “Go’zal” nomli she’rining Obid Azam tomonidan tarjimasi:

Qorong`u kechada ko`kka ko`z tikib,
Eng yorug` yulduzdan seni so`rayman.

Ul yulduz uyalib boshini egib,

Ayta-dur men uni tushda ko`raman⁴ –

I look at sky at night in darks,
And ask you from the brightest star.
That star inclining head remarks:
I always dream of her afar.

O’tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarining ingliz tiliga tarjimasidan olingan parchada:

¹ Alcott L.M. *Little women*. – L.:2021. – B. 188.

² Austen J. *Pride and Prejudice*. – L.: 2019. – B.103.

³ Huxley A. *Brave new world*. – L.: 2020. – B.49.

⁴ Yunusov Ch. *She’rlar kitobi*. – T.: 2000. – B.41.

“Darvinga e’tiroz” – “Darvin ta’limoti noto’g’ri. Odam maymundan emas, maymun odamdan tarqagan, oyog’i yerdan uzilmaganlar odam bo’lib qolgan, oyog’i yerdan uzilganlar esa maymun bo’lib daraxtga chiqib ketgan... Bu jarayon hamon davom etmoqda”.⁵

“The conception of Darwin is not true. Human did not appear from monkey wise verse monkey appeared from Human. Those whose legs are not removed from the ground have become a man. Those whose legs are removed from the ground have turned into monkey and climbed up the tree. This process is still going on”.

On Miss Lucs’s persevering, however, she added, “Very well, if it must be so, it must.” And gravely glancing at Mr.Darcy, “There’s a fine old saying, which everybody here is of course familiar with: “Keep your breath to cool your porridge”; and I shall keep mine to swell my song.”⁶

Asardan olingan bu parchada qo’llanilgan “**gravely glancing at Mr. Darcy**” vositasi so’zlovchi aytmoqchi bo’lgan gapi Mister Darsiga uchun tegishli ekanligini anglatmoqda.

Yoki boshqa misollarda:

“Ayiqdek lapanglab vagonga tomon birinchi bo’lib yurdi” – “Was the first to walk awkwardly towards the wagon like a bear”.

“Bu qandoq sharmandalik, bu qandoq sharmandalik! – deya baqirdi” – “What a shame, what a shame! – he cried angrily”.

Ingliz tilidan o’zbek tiliga tarjima qilish jarayonida noverbal aloqa vositalari bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, paralingvistik vositalar bo’lmish imo- ishoralar, yuz ifodalari, qo’l va oyoq harakatlari, gavda holatlari muloqotda keng qo’llaniladi. Xususan, o’zbek va ingliz tillarida mavjud bo’lgan barcha noverbal elementlar muloqotda o’z ifodasini topadi. Ta’kidlash joizki, noverbal vositalar muloqotni to’ldiradi va yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:


1. Abduazizov A.A. Tillar olamiga sayohat. – T ., 1988.
2. Abzuazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. – T ., 2010.
3. G’aybulla as-Salom. Tarjima tashvishlari. – T ., 1983.

⁵ Hoshimov O’. Daftari hoshiyasidagi bitiklar. – T.: 2016. – B.27.

⁶ Jane Austen. Pride and Prejudice. - T.: 2023. – B.13.



4. G'aybulla as-Salom. Til va tarjima. – T, 1966.
5. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T., 2008.
6. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari. – Andijon., 1980.
7. Nurmonov A., Saidxonov M. . Паралингвистические средства выражения утверждения и отрицания. – Советская тюркология, 1986.
8. Rahimov G'.H. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2016.
9. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – T., 2008.



Research Science and
Innovation House

